



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida investitsiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Hozirgi kunda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalarning hajmi va tarkibi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining yildan yilga ortib borishi va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri o'rganildi. Muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar ishlab chiqildi va amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, investitsiya hajmi, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the role and importance of investments in the development of the national economy. In modern economic conditions, the volume and structure of investments attracted to the economy play a crucial role in ensuring sustainable economic growth. The study examines the increasing dynamics of investment inflows into the country's economy and their impact on economic development. Based on the conducted research, the author formulates conclusions and provides practical recommendations.

Key words: investments, national economy, economic growth, investment volume, financing, economic development.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль и значение инвестиций в процессе развития национальной экономики. В современных условиях объем и структура инвестиций, привлекаемых в экономику, являются ключевыми факторами обеспечения устойчивого экономического роста. В ходе исследования рассмотрена динамика роста инвестиционных потоков в экономику страны и их влияние на социально-экономическое развитие. На основе проведенного анализа автором сформулированы выводы и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: инвестиции, национальная экономика, экономический рост, объем инвестиций, финансирование, экономическое развитие.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash hozirgi globallashtirish sharoitida eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, sanoat sohalarini modernizatsiya qilish hamda ularni texnologik jihatdan yangilash jarayonlarini jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, iqtisodiyotga yirik hajmdagi investitsiya resurslarini jalb etishni taqozo etadi.

Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, investitsion jarayonlarda moliya institutlari, xususan, tijorat banklarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Tijorat banklari jamg'arilgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning real sektoriga samarali yo'naltirish orqali investitsion faollikni oshirishda muhim vositachi vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion jarayonlarda faol ishtirok etishi sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan takomillashuvi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hamda mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyati yuksalishi ta'minlanadi.



Shu boisdan, tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada faollashtirish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

D.G'.G'ozibekov fikriga ko'ra, investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati moliyaviy kategoriya sifatida talqin etilib, quyidagicha ta'rif berilgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash hamda ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi"¹.

Taniqli iqtisodchi olimlardan biri – U.Sharp ham investitsion faoliyatni fond bozori orqali kreditlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqadorlikka asoslangan oqilona investitsion strategiya investitsion faoliyatni kreditlashning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa korporatsiyalarga fond bozori orqali qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi².

U.Sharpning investitsion faoliyatni kreditlashda moliyaviy vositachilarning roli haqidagi fikrlari muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur institutlar investitsion faoliyatni kreditlashning faol subyektlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan prof. D.Tojiboyeva fikricha: "Iqtisodiy nazariyada investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi". Shu sababli davlat korxonalariga nisbatan davlat budjetidan ajratiladigan investitsiyalarni belgilangan va past darajadagi imtiyozli foiz stavkalari asosida davlat moliya institutlari tizimi tomonidan boshqariladigan arzon kreditlarga aylantirib, ularni tender asosida taqsimlash bozor talablari bilan mos keladi.³

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish uchun mantiqiy va tarkibiy tahlil usullari, guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro hamda qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida O'zbekiston tijorat banklarining investitsiya loyihalarini kreditlash mexanizmlarida turli yondashuvlar mavjudligi aniqlandi, shuningdek, tijorat banklari faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi holatlar belgilab olindi. Ushbu holatlar asosida tegishli modellarni ishlab chiqish hamda baholashni farqlash uchun ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotdagi investitsion jarayonlarni yanada jadallashtirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni ta'minlashda bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamlarini kengaytirish hamda investitsion kreditlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda tarkibiy va sifat o'zgarishlar davom etayotgan bugungi kunda banklar resurs kapitalining ko'payishi, bank xizmatlari doirasining yanada jadal kengayishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish evaziga raqobatning kuchayishi, jahon moliya-bank tuzilmalari bilan aloqalarning rivojlanishi hamda bank-moliya innovatsiyalari segmentida loyihalarning ishlab chiqilishi O'zbekiston zamonaviy bank tizimining eng muhim tavsiflaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuni ta'kidlash muhimki, banklarning kapitallashuv darajasining oshishi va bank likvidliligining ta'minlanishi ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish jarayonida banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini ta'minlash uchun barqaror resurs bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Banklarning umumiy kapitali va depozit bazalarining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi ishtirokini faollashtirishga, bank aktivlari va kredit qo'yilmalari hajmining ko'payishiga xizmat qiladi.

Xususan, yuqoridagi tahlil ma'lumotlari asosida tijorat banklarining jami kapitali va depozitlarining so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasida ekanligini ko'rish mumkin. Shunga mutanosib ravishda, tijorat


1 G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti. 2003. 26bet.

2 Sharp W. va boshqalar. Investitsiyalar. Ingliz tilidan tarjima qilingan. Moskva: INFRA-M, 2016. – 9-10 betlar.

3 Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: ikkinchi bob: oily o'quv yurtlarida talabalar uchun o'quv qo'llanma/M.Sharifxo'jayev ilmiy tahriri ostida. T.: "Sharq" 2003. -B.79




banklarining jami aktivlari hajmi ham 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 28,2 foizga oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 56,2 trln. so'mga yetdi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarining jami aktivlari o'zgarishi dinamikasi, mlrd. so'mda (1-yanvar holatiga)⁴

Shu jumladan, 2024-yilda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 2023-yilga nisbatan 31,2 foizga o'sib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 34,8 trln. so'mni tashkil etdi (2-rasm).




2-rasm. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari dinamikasi, mlrd. so'mda (1-yanvar holatiga)⁵

Respublika bank tizimida iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmlarini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarida banklarning ishtirokini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmlarining yuqori sur'atlarda davom ettirilishi natijasida 2023-yil mobaynida real sektorni kreditlashning umumiy hajmi 2024-yilga nisbatan 31,2 foizga oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 34,8 trln. so'mdan ortiqni tashkil etdi (3-rasm).

⁴ www.cbu.uz//O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy saytining ma'lumotlari asosida tuzildi.

⁵ www.cbu.uz//O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy saytining ma'lumotlari asosida tuzildi.




3-rasm. Iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar miqdori, 2023–2025-yillarning 1 yanvar holatiga, trln. so'mda⁶

2020–2024-yillardagi o'zgarish sur'atlari ko'rib chiqilsa, iqtisodiyotning real sektorini kreditlashning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 30 foizni, iqtisodiyotning ayrim yo'nalishlari va tarmoqlarida esa bundan ham yuqori darajani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Eng asosiysi, respublikamiz tijorat banklarining kredit portfeli va umumiy aktivlarining yuqori o'sish sur'atlari asosan ichki zaxiralar va manbalarni yanada kengroq jalb qilish evaziga ta'minlanmoqda.

Mazkur siyosatning amalga oshirilishi natijasida ichki manbalar hisobidan ajratilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi ulushi so'nggi 5 yil davomida 4,2 barobarga oshib, hozirgi kunda 86 foizni tashkil etmoqda.

2023-yil mobaynida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 8,5 trln. so'm, ya'ni 2019-yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p investitsion kreditlar ajratildi (4-rasm).



4-rasm. Investitsion kreditlar dinamikasi, mlrd.so'mda⁷

⁶ Bank axborotnomasi 2015 yil 16-aprel. №16(987)

⁷ www.cbu.uz//O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy saytining ma'lumotlari asosida tuzildi.



Bunda banklarning investitsion kreditlari ustuvor ravishda “2023–2025-yillarda sanoatni rivojlantirish”, “2024-yilgi Investitsiya dasturi”, shuningdek, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliy lashtirish va hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olishga yo'naltirilmoqda.

Jumladan, 2024-yil davomida tijorat banklari tomonidan:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1047-son⁸ qarorini ijro etish doirasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarga 1,6 trln. so'm, ya'ni 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1050-son⁹ qaroriga muvofiq nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga 1,7 trln. so'm, ya'ni 2023-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratildi.

Quyidagi jadvalda tijorat banklarining investitsion kreditlarining umumiy kredit hajmidagi ulushini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridan berilgan kreditlar va investitsion kreditlar, mlrd. so'mda¹⁰

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2020–2024-yillarda o'sish darajasi (marta)
Bank kreditlari	8 558,2	11 539,0	15 652	20 392	26 530	3,1
Bankning investitsion kreditlari	6 705	3 252	4 444	5 760	7 200	1,1
Bank kreditlari tarkibida investitsion kreditlar ulushi (%)	78,3	28,2	28,3	28,2	27,1	–2,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan berilgan umumiy kreditlar 3,1 barobarga, banklarning investitsion kreditlari esa 1,1 barobarga oshgan. Bank kreditlari tarkibida investitsion kreditlarning ulushi 2020-yilda 78,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, so'nggi to'rt yilda bu ko'rsatkich 28–27 foiz atrofida saqlanib qolgan.

Mazkur jadval ma'lumotlari so'nggi 4 yil davomida bank kreditlari tarkibida investitsion kreditlar ulushi nisbatan barqaror bo'lganini ko'rsatadi. Jami berilgan kreditlarning qariyb 1/3 qismi investitsion kreditlarga to'g'ri kelishi iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish korxonalarining bunyod etilayotgani hamda mavjudlarining texnik jihatdan qayta jihozlanayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, investitsion kredit qo'yilmalari ayrim tijorat banklari misolida tahlil qilinsa, “O'zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik tijorat banki iqtisodiyotning real tarmoqlariga investitsiyalarni keng jalb etish orqali sanoatni modernizatsiya qilishda faol ishtirok etib, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Mazkur bank bugungi kunda yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalaridan tortib, kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda aniq va samarali kredit siyosatini olib bormoqda. Joriy yilning 9 oyi davomida bank kredit portfeli yil boshiga nisbatan 1,0 trln. so'mga, ya'ni 20 foizga oshib, 5 trln. 950 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda investitsion loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar jami kredit portfelining 78 foizini tashkil etib, hisobot davrida ularning qoldig'i 4 trln. 641 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'kidlash joizki, joriy yilda “O'zsanoatqurilishbank” davlat investitsiya dasturiga muvofiq kichik biznes sohasini moliyalashtirish maqsadida Germaniyaning “Commerzbank AG”, Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi hamda Jahon bankining kredit liniyalari bo'yicha mablag'larni o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda. Bank joriy yil 1-oktyabr holatiga ko'ra iqtisodiyotga jami 957 mlrd. so'mlik investitsion kreditlar ajratdi, chet el banklarining kredit liniyalari orqali esa 173 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'larni jalb qildi.

Shuningdek, investitsion kreditlarning 590 mlrd. so'mi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, 194,4 mlrd. so'mi esa bankning o'z mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan shakllantirildi. Ushbu mablag'larni tarmoqlar kesimida taqsimlaganda, 688,3 mlrd. so'mi neft-gaz, 4 mlrd. so'mi kimyo hamda 50,2 mlrd. so'mi energetika tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1047-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-1434391>

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1050-son qarori: <https://www.lex.uz/uz/docs/-1434000>

10 www.cbu.uz — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.



Shuningdek, “Asaka” davlat aksiyadorlik tijorat banki tomonidan ham iqtisodiyotning real sektori korxonalarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Joriy yil 1-aprel holatiga ko'ra bankning kredit qo'yimalari hajmi 2,8 trln. so'mni tashkil etib, shundan 1,9 trln. so'mdan ziyodi, ya'ni 87 foizi investitsion kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yuqori darajada ta'minlash, ularning likvidligini mustahkamlash, depozit bazasini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga erishildi. Shuningdek, yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega bo'lish, ajratilayotgan kreditlar hajmini oshirish orqali iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaydi.

Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirishning hozirgi sharoitida turli tarmoqlar va sohalarni modernizatsiya qilish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish hamda investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda davlatning muhim roli saqlanib qolmoqda.

2. Iqtisodiyotning har bir sohasiga investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmlarini yanada kengaytirish, shuningdek, aholining turmush farovonligini oshirishga erishish mumkin.

3. Tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada kengaytirish, eksport qiluvchi korxonalar hamda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarni izchil davom ettirish, iqtisodiyotning real sektor korxonalari tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarining ushbu loyihalarda o'z kredit resurslari bilan faol ishtirok etishini ta'minlash, pirovard natijada ularni yirik investitsiya institutlariga aylantirish uchun zarur sharoit yaratadi.

4. Xalqaro talablarga mos zamonaviy bank boshqaruvi tizimini amaliyotga joriy etish orqali banklar o'z resurs bazasini mustahkamlab, iqtisodiyotning real sektori hisoblangan korxonalar, kichik biznes subyektlari hamda aholiga sifatli va zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan jihatlarga rioya etish tijorat banklariga investitsiya loyihalarini kreditlash mexanizmlarini samarali saqlash va rivojlantirishga, shuningdek, moliya bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar majmuasi orqali har qanday tijorat bankining moliyaviy holatini aniqlash mumkin, degan xulosaga kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmonining 1-ilovasi.
2. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. – 14–15-b.
3. Sharp U., Aleksandr G., Beyli Dj. Investitsii: per. s angl. – M.: INFRA-M, 2003. – XII, 1-b.
4. Allayarov S.A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124–128.
5. Rustamovich A.S. (2023). Development issues of insurance markets. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 502–508.
6. Karimov N.G., Razzaqov J.X. (2019). Investitsion loyihalarni sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. <https://iqtisodiyot.tsue.uz>
7. Razzaqov J.X. Biznesni moliyalashtirishda loyihaviy moliyalashtirishning o'rni va ahamiyati. // O'zbekistonda xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – T.: “Zebo print”, 2023. – 492–495-b.
8. Razzaqov J.X. Biznes loyihalarini moliyalashtirish va samaradorligini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent shahri, 2024-yil. – 30-b.
9. Астанакулов О.Т. Корхоналар инвестиция фаолияти таҳлили методологиясини такомиллаштириш. // Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. – Тошкент шаҳри, 2020-йил. – 24-б.
10. Bakanov M.I., Melnik M.V., Sheremet A.D. (2020). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – M.: Moliya va statistika.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
